

XI. DEMOGRAFIK HOLAT VA BANDLIK

Navoiy viloyati va hududlarning tashkil topgan yillari hamda ularning markazlari

	<i>Tashkil topgan yil</i>	<i>Viloyat va tuman, shaharlar markazlari</i>	<i>Yer maydoni, ming. kv. km.</i>
Navoiy viloyati	27.01.1992-y.	Navoiy sh.	111,1
Navoiy sh.	1958-y.	Navoiy sh.	0,06
Zarafshon sh.	1972-y.	Zarafshon sh.	0,02
G'ozg'on sh.	03.05.2019-y.	G'ozg'on sh.	0,59
Karmana	09.09.1926-y.	Karmana sh-cha.	0,94
Konimex	29.12.1965-y.	Konimex sh-cha.	9,25
Qiziltepa	07.12.1970-y.	Qiziltepa sh.	2,19
Navbahor	12.03.1980-y.	Beshrabort sh-cha.	1,57
Nurota	29.09.1926-y.	Nurota sh.	5,94
Tomdi	03.07.1927-y.	Tomdibuloq sh-cha.	42,49
Uchquduq	25.03.1982-y.	Uchquduq sh.	46,63
Xatirchi	03.12.1964-y.	Yangirabort sh.	1,42


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 1 111 898 kishini tashkil etdi va yil boshidan 17 193 kishiga yoki 1,6 foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni¹⁾
(2026- yil 1-yanvar holatiga, kishida)

	<i>Jami aholi</i>	<i>shu jumladan:</i>		<i>1 kv. km ga to‘g‘ri keladiganlar soni</i>
		<i>shahar aholisi</i>	<i>qishloq aholisi</i>	
Jami	1 111 898	548 765	563 133	10,0
Navoiy sh.	171 293	171 293	-	2 854,9
Zarafshon sh.	92 111	92 111	-	4 605,6
G‘ozg‘on sh.	9 456	9 456	-	16,0
Karmana	144 738	47 195	97 543	154,0
Konimex	36 850	16 807	20 043	4,0
Qiziltepa	167 138	51 751	115 387	76,3
Navbahor	124 081	17 837	106 244	79,0
Nurota	91 936	52 461	39 475	15,5
Tomdi	15 178	5 156	10 022	0,4
Uchquduq	39 874	34 751	5 123	0,9
Xatirchi	219 243	49 947	169 296	154,4

Doimiy aholi soni
(2026-yil 1-yanvar holatiga)

Жами аҳоли сони 1 111 898 киши




Aholining tabiiy harakati
(2025- yil yanvar-dekabr)

	kishi			har 1000 aholiga nisbatan (promille)	
	2024-y.	2025-y. ¹⁾	o'sish, kamayish	2024-y.	2025-y. ¹⁾
Tug'ilganlar	25 763	24 127	-1 636	23,7	21,9
O'lganlar	4 881	4 781	-100	4,5	4,3
Tabiiy o'sish	20 882	19 346	-1 536	19,2	17,6
Nikohlar	7 538	7 334	-204	6,9	6,6
Ajralishlar	1 258	1 376	118	1,2	1,2

¹⁾ dastlabki ma'lumot

¹⁾ dastlabki ma'lumot

Har 1 000 aholiga nisbatan tabiiy harakati (promille)



Tug'ilish darajasi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida tug'ilganlar soni 24 127 kishini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan (25 763 kishi) nisbatan 1 636 taga kamaygan. Tug'ilish koeffitsiyenti mos ravishda 21,9 promilleni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan (23,7 promille) nisbatan 1,8 promillega kamaydi.

Tug'ilish koeffitsiyenti viloyatning Navoiy shahrida (27,1 dan 22,1 promillega), Navbahor tumanida (22,7 dan 19,7 promillega), Qiziltepa tumanida (23,8 dan 22,8 promillega), Xatirchi tumanida (24,3 dan 22,6 promillega), Karmana tumanida (23,6 dan 22,1 promillega), Zarafshon shahrida (23,4 dan 22,4 promillega) va Uchquduq tumanida (18,4 dan 17,6 promillega), G'ozg'on shahrida (18,0 dan 17,5 promillega), Nurota tumanida (25,2 dan 24,7 promillega) kamayish kuzatilib, Tomdi tumanida (13,1 dan 14,6 promillega) va Konimex tumanida (18,7 dan 19,0 promillega) oshishi kuzatildi.


O'lim darajasi. 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida o'lganlar soni 4 781 kishini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan (4 881 kishi) nisbatan 100 taga kamaydi. O'lim koeffitsiyenti mos ravishda 4,3 promilleni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan (4,5 promillega) nisbatan kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

O'lganlar soni. Qiziltepa tumanida (4,2 dan 4,3 promillega), Karmana tumanida (5,0 dan 5,2 promillega) va Tomdi tumanida (4,2 dan 4,4 promillega) oshgan bo'lsa, Nurota tumanida (5,0 dan 5,0 promillega) o'zgarmagan. Konimex tumanida (6,4 dan 5,9 promillega), Navoiy shahrida (4,6 dan 4,3 promillega), Xatirchi tumanida (4,7 dan 4,2 promillega), Zarafshon shahrida (2,9 dan 2,7 promillega), Navbahor tumanida (4,6 dan 4,3 promillega), Uchquduq tumanida (3,2 dan 3,1 promillega) va G'ozg'on shahrida (4,7 dan 4,4 promillega) kamayganini kuzatishimiz mumkin.


Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni
(yanvar-dekabr oylarida, birlik)

	<i>Tuzilgan nikohlar</i>		<i>Nikohdan ajralishlar</i>	
	<i>2024</i>	<i>2025</i>	<i>2024</i>	<i>2025</i>
Jami	7 538	7 334	1 258	1 376
Navoiy sh.	1 451	1 174	282	338
Zarafshon sh.	524	462	81	92
G‘ozg‘on sh.	51	61	2	2
Karmana	1 038	1 117	232	220
Konimex	208	240	38	49
Qiziltepa	1 122	1 116	169	160
Navbahor	818	814	117	114
Nurota	616	545	66	62
Tomdi	49	70	4	2
Uchquduq	199	215	47	44
Xatirchi	1 462	1 520	220	293

Viloyat bo‘yicha tuzilgan nikohlarda hududlarning ulushi, % da



Viloyat bo'yicha nikohdan ajralishlarda hududlarning ulushi, % da



Nikohlar va ajralishlar. 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYo organlarida 7 334 ta nikohlar va 1 376 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Har ming aholiga nisbatan 6,6 promille nikoh (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 promille) va 1,2 promille ajralishlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 promille) ga to'g'ri keldi.

Tuzilgan nikohlar viloyatning G'ozg'on shahrida (5,5 dan 6,5 promillega), Konimex tumanida (5,6 dan 6,5 promillega), Tomdi tumanida (3,2 dan 4,6 promillega), Karmana tumanida (7,4 dan 7,8 promillega), Xatirchi tumanida (6,8 dan 7,0 promillega) va Uchquduq tumanida (5,0 dan 5,4 promillega) oshgani kuzatildi.


Nikohdan ajralganlar viloyatning Konimex tumanida (1,0 dan 1,3 promillega), Xatirchi tumanida (1,0 dan 1,3 promillega), Navoiy shahrida (1,7 dan 2,0 promillega) va Zarafshon shahrida (0,9 dan 1,0 promillega) oshgani kuzatildi.

Aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari
(yanvar-dekabr oylarida 1 000 aholi soniga nisbatan)

promille

	Tugʻilganlar		Oʻlganlar		Aholining tabiiy oʻsishi	
	2024-y.	2025-y. ¹⁾	2024-y.	2025-y. ¹⁾	2024-y.	2025-y. ¹⁾
Navoiy	23,7	21,9	4,5	4,3	19,2	17,6
Navoiy sh.	27,1	22,1	4,6	4,3	22,5	17,8
Zarafshon sh.	23,4	22,4	2,9	2,7	20,5	19,7
Gʻozgʻon sh.	18,0	17,5	4,7	4,4	13,3	13,1
Karmana	23,6	22,1	5,0	5,2	18,6	16,9
Konimex	18,7	19,0	6,4	5,9	12,3	13,1
Qiziltepa	23,8	22,8	4,2	4,3	19,6	18,5
Navbahor	22,7	19,7	4,6	4,3	18,1	15,4
Nurota	25,2	24,7	5,0	5,0	20,2	19,7
Tomdi	13,1	14,6	4,2	4,4	8,9	10,2
Uchquduq	18,4	17,6	3,2	3,1	15,2	14,5
Xatirchi	24,3	22,6	4,7	4,2	19,6	18,4

Viloyat boʻyicha aholining tabiiy oʻsish koeffitsiyenti, promilleda



¹⁾ dastlabki maʼlumot

Tabiiy o‘sish. 2025- yil yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o‘sish koeffitsiyenti mos ravishda 17,6 promilleni tashkil qildi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan (19,2 promille) nisbatan 1,6 promillega kamayganini ko‘rsatmoqda.

Tabiiy o‘sish koeffitsiyenti Konimex tumanida (12,3 dan 13,1 promillega) va Tomdi tumanida (8,9 dan 10,2 promillega) oshishi kuzatildi.


Shuningdek, Zarafshon shahrida (20,5 dan 19,7 promillega), Navoiy shahrida (22,5 dan 17,8 promillega), Navbahor tumanida (18,1 dan 15,4 promillega), Qiziltepa tumanida (19,6 dan 18,5 promillega), Karmana tumanida (18,6 dan 16,9 promillega) va Xatirchi tumanida (19,6 dan 18,4 promillega) kamayish kuzatildi.

Viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

(yanvar-dekabr oylarida, kishi)

	<i>Ko‘chib kelganlar</i>		<i>Ko‘chib ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldosi</i>	
	<i>2024</i>	<i>2025</i>	<i>2024</i>	<i>2025</i>	<i>2024</i>	<i>2025 ¹⁾</i>
Jami	12 341	14 284	13 786	16 437	-1 445	-2 153
Navoiy sh.	5 067	6 096	3 503	4 296	1 564	1 800
Zarafshon sh.	2 177	2 137	2 020	2 228	157	-91
G‘ozg‘on sh.	20	16	35	40	-15	-24
Karmana	1 935	2 476	1 538	1 939	397	537
Konimex	37	68	702	905	-665	-837
Qiziltepa	703	821	1 106	1 336	-403	-515
Navbahor	558	613	868	1 131	-310	-518
Nurota	219	256	814	898	-595	-642
Tomdi	160	206	533	473	-373	-267
Uchquduq	787	795	978	1 200	-191	-405
Xatirchi	678	800	1 689	1 991	-1 011	-1 191

Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni (yanvar-dekabr oylarida, kishi)



Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 14 284 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 16 437 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i manfiy 2 153 kishiga (o'tgan yilning mos davriga nisbatan manfiy 1 445 kishi) teng bo'ldi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig'i Xatirchi tumanida (manfiy 1 191 kishiga), Konimex tumanida (manfiy 837 kishiga), Nurota tumanida (manfiy 642 kishiga), Navbahor tumanida (manfiy 518 kishiga), Qiziltepa tumanida (manfiy 515 kishiga), Uchquduq tumanida (manfiy 405 kishiga), Tomdi tumanida (manfiy 267 kishiga), Zarafshon shahrida (manfiy 91 kishiga) va G'ozg'on shahrida (manfiy 24 kishiga) kamayish kuzatildi.

Viloyat hududida migratsiya qoldig'i Navoiy shahrida (1 800 kishiga), Karmana tumanida (537 kishiga) oshgani kuzatildi.